

## ADDIKTIV XULQLI KURSANTLAR TA'SIRIDA YUZAGA KELGAN NIZOLI VAZIYATLAR PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA O'RGANILISHI

*Qarshibayev Murodil Qarshibay o'g'li*

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kursantlar jamoasida nizoli vaziyatlarning vujudga kelishida addiktiv xuqli shaxslarning ta'siri haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar.** Addiktiv, kursant, xulq, harbiy, munosabat, sotsial, nizo, nizoli vaziyat, addiktiv qaramlik, stress, depressiya, korrektsiya.

Hozirda Yer kurrasida yashayotgan aholi soni 6 milliarddan oshib ketdi. Ular ikki yuzdan ortiq milliy-davlat tuzilmalariga, yuzlab katta va kichik ijtimoiy guruhlariga oila, diniy birlashma, xo'jalik yoki siyosiy elita va boshqalarga birlashganlar. Ular o'rtasidagi munosabatlar, shubhasizki, muayyan ziddiyatlarsiz bo'lishi mumkin emas, ayniqsa, ularning shaxsida addiktiv xulqning shakllanishi ziddiyatlar sonining oshishiga ta'sir o'tkazib qolmaydi. Ijtimoiy guruhlar o'rtasida konfliktlarning yuzaga kelish sabablari talaygina. Bular qatoriga resurslarning cheklanganligi, ba'zi guruhlar ijtimoiy maqomining yuqoriligi, ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni boshqalarga tazyiq bilan o'tkazishi hamda addiktiv qaramlik va hokazolarni kiritish mumkin. Guruhlararo konfliktlar taxminan shaxslararo bo'ladigan ziddiyatlar kabi ayni ssenariy bo'yicha rivojlanadi. Biroq, katta guruhlariga birlashgan odamlarning konfliktlarga tortilish faktining o'ziyoq ularning vujudga kelish mexanizmlarini ham, ro'y berish jarayonlarini ham tubdan o'zgartirib yuboradi. Ularning oqibatlari ko'lami to'g'risida esa gapirmasa ham bo'ladi. Shuning uchun ham, guruhlararo konfliktlarni alohida mavzu sifatida ko'rib chiqish va ularning vujudga kelish ijtimoiy mexanizmlarini ajratib ko'rsatish hamda ularning o'ziga xos xususiyatlarini alohida kuzatish maqsadga muvofiq. Insoniyat tarixi siyosiy, milliy, diniy, xulqiy va boshqa guruhlararo konfliktlar tarixidan iborat. Konfliktsiz tarixni hatto tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Ular insoniyat taraqqiyotining vositasi demakdir. Bugungi kunda dunyodagi konfliktlar soni yanada ortib borishi kerakligi ta'kidlanadi. Bunga sabab, birinchidan, amaldagi har qanday jamiyat avvalgilariga qaraganda ancha differentsiallashgan. Ijtimoiy strukturalar mehnatning bo'linishi asosida murakkablashmoqda, ko'plab turdagi ijtimoiy guruhlar vujudga kelmoqda demakki, faqat matematik nuqtai nazardan qaraganda ham ular o'rtasidagi konfliktlar ehtimoli ortib borishi kerak.

Ikkinchidan, va ehtimol eng asosiysi, bu - Yer kurrasining aholisi tobora shiddat bilan ortib bormoqda bizning xayot kechirishimiz, ehtiyojlarimiz uchun zarur bo'lgan bioresurslar miqdori chegaralangan, chunki biosfera cheksiz emas. Shu tufayli kamyob

resurslar uchun raqobat muqarrar tarzda ortib, konfliktlar miqdorini tobora ko'paytirmoqda. Shuningdek, shaxslar ijtimoiy munosabatlarga kirishish jarayonida muammoli, nizoli holatlarga duch keladi. Bunga sabab qilib, shaxsning ehtiyoji yoki ularda shakllangan addiktiv xulq natijasida deb bemalol ayta olamiz. Kursantlar jamoasida ham o'zlarining ehtiyojlari yoki ularda shakllangan addiktiv xulq natijasi tufayli xuddi shunday holatlarga duch kelishadi.

Jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida odamlar orasida o'zaro kelishmovchiliklar, ziddiyat va nizolar mavjud bo'lib kelgan. Chunki, har qanday taraqqiyotning asosida qarama-qarshilik va ziddiyat yotadi. Shaxs jamiyat taraqqiyotini amalga oshiruvchi asosiy kuch va vosita bo'lib hisoblanib, u jamiyat va tabiatni o'ziga moslashtirish barobarida undagi turli holatlarni taqiq qilish bilan ham shug'ullanadi. Shuning uchun ham nizo va ziddiyat jamiyat taraqqiyotini rivojlanishining asosiy begilari hisoblanadi.

Ziddiyat insoniyat paydo bo'lgan davrdanoq o'z tabiatini namoyon qilib kelmoqda, ammo uni ilmiy tadqiqot predmeti sifatida o'rganish borasidagi ilk qarashlar qadimiy tarixga ega. Hayot tarzi, mehnat faoliyati, shaxslararo munosabat muhitining o'zgarayotganligi nizolarning ham o'ziga xos tomonlari mavjudligini ko'rsatmoqda.

O'z vaqtida Napoleon Bonapart shunday yozgan ekan: "Qilich bilan har narsa qilish mumkin, faqat uning ustiga o'tirib bo'lmaydi"<sup>1</sup>. Bu fikrida u ko'pincha insonlar o'rtasida bo'lib turadigan nizolarni, ziddiyatlarni nazarda tutgan ekan. Chunki totalitar yoki diktatorlik boshqaruvi sharoitida ziddiyatlarning bo'lishi tabiiy bo'lib, uning yagona yechimi uzil-kesil uni hal qilish choralarini izlash bo'lgan. Lekin demokratik munosabatlar sharoitidagi rahbar hamda uning qo'l ostidagilar o'rtasida yoki harbiy xizmatchilar o'rtasida kelib chiqadigan nizolar yoki ziddiyatlarning tabiati va mohiyati biroz boshqacha bo'ladi.

Nizolar inson hayotining ajralmas qismidir. Ikki tomon o'zaro muloqotga kirishar ekan, ular o'rtasida nizoning vujudga kelish ehtimoli doim mavjud bo'ladi. Bir-biridan farqlanuvchi fikrlarga, maqsad va unga erishish yo'llari haqidagi tasavvurlarga ega bo'lgan odamlar mavjud joyda, inson individualligining namoyon bo'lishiga to'sqinlik qilinmaydigan makonda, shubhasiz, nizoli vaziyatlar vujudga keladi.

Nizo- muloqot ishtirokchilarning har biri uchun muhim bo'lgan muammoni hal etish vaqtida ular o'rtasida vujudga kelgan qarama-qarshilik va kurashning keskin kuchayib ketish jarayonidir.

Nima sababdan addiktiv xulqli kursantlar o'rtasida turli xil nizolar kelib chiqadi? Buning bir necha sabablari bor:

harbiy xizmatchi va jamoatchilik manfaatlarining mos kelmasligi;

<sup>1</sup> R.Farmonov, U.Jo'rayev, Sh.Ergashev. "Jahon tarixi" Darslik. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2019-yil

bo'linmadagi ayrim shaxslar xatti-harakatlarining ijtimoiy va guruhiy me'yorlarga zid kelishi (addiktiv qaramligi, tartibsizlik, intizomning buzilishi, ishning samarasizligi va hokazo);

jamo'a a'zolari qarashlaridagi nomuvofiqliklar;

ishni tashkil etish va kasbiy faoliyatga nisbatan munosabatlardagi farqlar;

komandirlar tomonidan bo'ysinuvchiga berilgan baho bilan harbiy xizmatchining o'ziga o'zi bergan bahosi o'rtasidagi tafovutlar;

rahbar va jamoatchilik tomonidan baholashning to'g'ri kelmasligi;

moddiy va ma'naviy rag'batlantirishdagi tengsizliklar haqidagi qarashlari va hokazo.

Umumiy ma'noda konfliktning sababi-konflikt yuzaga kelishini belgilab beruvchi hodisa hisoblanadi. Ammo shunday savol qo'yamizki, nega aynan o'sha hodisalar, ba'zi bir shaxslar va guruhlarda konfliktni keltirib chiqaradi. Nega ba'zi guruh kursantlari lavozim uchun kurashadi, boshqalarning esa ishi yo'q? Javob shuki, ba'zi bir kishilar uchun bu holat ehtiyoj sifatida ko'rinadi boshqalar uchun esa yo'q. Demak, ehtiyojdan tashqari konflikt mavjud emas.

Shunday qilib, u yoki bu hodisa o'zining subyektlari uchun ehtiyoj sifatida, konfliktning sababi faqat manfaat sifatida namoyon bo'luvchi anglab yetilgan ehtiyoj hisoblanadi. Biroq, har qanday manfaat ham konfliktning sababi bo'lavermaydi. Faqat yetishmayotgan talabni qondirish bilan bog'liq va ularni to'qnashuv sodir qiladigan manfaatlar sabab bo'lishi mumkin. Shunday qilib, egallash natijasida qarama-qarshilik yuzaga keltiruvchi hamda tomonlar o'rtasida qanday ijtimoiy konfliktning provard sababi-bu uning subyektlari: individlar, ijtimoiy guruhlar, jamoalar va jamiyatlar o'rtasida manfaatlar qarama-qarshiligidir. Tushunish oson bo'lishi uchun, ushbu masalani bayon etishda konflikt yuzaga kelganidagina konfliktning sababi bo'ladi.

Sabablarini quyidagicha guruhlariga ajratdik:

- 1) manfaatlar qarama-qarshiligi konfliktlarning fundamental sababi sifatida;
- 2) konflikt yuzaga kelishining ob'yektiv va subyektiv omillari;
- 3) konflikt yuzaga kelishining shaxsiyat bilan bog'liq faktorlari.

Ta'kidlash lozimki, konfliktning yuzaga kelish sabablarini uning bahonasidan farqlash lozim.

Konfliktning sababi, uning yuzaga kelishiga yordam beruvchi hodisa hisoblanadi, ammo konflikt kelib chiqishini shart qilib belgilamaydi. Sababdan farqli bahona bexosdan yuzaga kelishi va butunlay sun'iy, ya'ni yo'q joydan paydo qilinishi mumkin. Sabab esa narsalarning sababiy bog'lanishini aks ettiradi. Masalan, oilaviy konfliktga sho'r (yoki tuzi past) qilib yuborilgan ovqat bahona bo'lishi mumkin, haqiqiy sabab esa er yoki xotinda addiktiv xulqning mavjudligidir.



Manfaatlar qarama-qarshiligi konfliktning fundamental sababi sifatida bo‘sh joyda yuzaga kelmaydi. Ular quyidagicha ajratilishi mumkin bo‘lgan turlicha omillar tufayli yuzaga kelishi mumkin:

- 1) ob’yektiv;
- 2) shaxslararo.

Kursantlar jamoasining turli sohalarida konfliktni yuzaga keltiruvchi ob’yektiv omillar soni kop va turli tuman. Har bir insonning tabiiy va ijtimoiy ehtiyojidan kelib chiqqan holda moddiydir. Ya’ni:

- Moddiy ne’matlar;
- Resurslar;
- Hokimiyat;
- Mansab;

Ijtimoiy ma’naviy qadriyatlar va boshqalardir. Ularni umumlashtiradigan kuch-bu insoniy fazilatlardan, ularning ongi va irodasi, qadriyatlari va qiziqishlaridan mustaqilligidir. Kursantlarning shaxslararo munosabatida nizo kelib chiqishi hollari ham ob’yektiv turiga oxshab ko‘p kuzatiladi. Masalan, bir kursant o‘quv jarayonida manfaatlari to‘qnashuvi natijasida boshqa bir shaxs bilan albatta nizoli holatga uchrashi mumkin. Kursantlar jamoasida nizoli vaziyatlarni, ayniqsa, ziddiyat ishtirokchilarida zararli odatlar va illatlarning borligini psixologik muammo sifatida o‘rganilishiga universitetimizda e’tibor qaratilgan. Sababi, kursantlar bo‘lajak rahbar shaxs. Milliy armiyamizning asosiy qatlamlaridan biri hisoblanadi. Ularning jamoasida nizoli vaziyatlar vujudga kelsa bevosita, ularning ya’ni kursantlarning ruhiyatiga psixikasiga ta’sir o‘tkazadi. Ma’lum vaqt o‘tib kursant o‘quv faoliyatini yakunlaganiga qadar biror nojoya xatti-harakat sodir etish ehtimoli mavjud, ya’ni, kursant o‘quv faoliyatini yakunlab, xizmat faoliyatini joylarga borib davom ettirayotgan vaqtda jamoasidagi boshqa shaxslarga ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bir yilda taxminan, 300 ta kursant o‘quv faoliyatini tugallab, o‘z xizmat faoliyatini joylarda davom ettirsa, ular o‘z jamoasida osha kayfiyatda yonidagi harbiy xizmatchilarga ta’sir qiladi. Bu xizmatni buzilishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Barchamizga ma’lumki, xizmat bo‘lgan joyda kamchilik ham bo‘ladi. Sababi, xalqimizda “Donolar ham xato qiladi”- degan naql bejiz emas. Shundan kelib chiqib, xulosa qilishimiz mumkinki, o‘z tug‘ilib, o‘sgan uyidan, uzoqda tahsil olayotgan jinsidan qat’iy nazar, har bir kursant uchun qiyinchilik tug‘diradi va kamchiliklar va intizomiy qoida buzilish holatlariga duch keladi. 2023-yilning so‘ngi choragidagi shu va shunga o‘xshash nizom buzilish holatlarining aksariyati zararli odat va illatlarga qaramligi hamda addiktiv xulq shakllanishi natijasida vujudga kelganligini statistik ko‘rsatkichlarda ko‘rishimiz mumkin, Aytadigan bo‘lsak, nizom buzilish holatlari, kursantlarning ta’tiliga (qishki,yozgi) yaqin vaqtlarida kuzatiladi. Sababi, o‘qish

davrida o'quv jarayoni hamda harbiy xizmatning bir vaqta bo'lishi har bir kursantning ruhiyatiga albatta, ta'sir ko'rsatadi. Bunday holatlarda, bo'linma komandirlari har bir kursantga individual e'tibor qaratishi lozim. Ular bilan yakka tartibda suhbat olib borish va profilaktik tadbirlarni ko'paytirish kerak. Shuningdek, universitet psixologiya xizmati bilan hamkorlikda shaxsiy tarkibning ruhiyatini ko'tarish maqsadida treninglarni tashkillashtirish bilan yaxshi natijalarga erishish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Д.Маерс “Социальная психология” издание. Питер 2010-г.
2. Д.И.Купов “Педагогика и психология в профсоюзной работе.” Москва 2004-г.
3. В.В.Давидова “Актуальные проблемы общей, социальной и педагогической психологии.” Москва 2001-г.
4. Д.Майерс “Социальная психология” Питер 2009-г.
5. А.Я.Ансупов “Конфликтология в схемах и комментариях”. Питер 2007г
6. R.Farmonov, U.Jo'rayev, Sh.Ergashev. “Jahon tarixi” Darslik. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2019-yil.